O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA’LIM VA ILM-FAN VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI



“O‘ZBEK TILINING GLOBAL MAQOMI VA NUFUZINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI”

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI







2026-yil
16-oktabr

SINESTEZIK METAFORALARDA SEZGILAR INTERPERATSIYASI

SENSORY INTERPRETATION IN SYNAESTHATIC METAPHORS

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2026.10.16/HMLR1136

Oripova Mavluda Baxriddinovna
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti
oripovamavluda922@gmail.com

Annotatsiya: *Sinestezik metaforalar interperatsiyasi bu – sezgilar orqali ifodalanuvchi metaforalarning chuqur ma’no qatlamlarini tahlil qilish va ularning inson idrokida qay tarzda shakllanishini anglash jarayoni hisoblanadi. Mazkur maqolada sinestezik metaforalar interperatsiyasida sezgilarning roli ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *sinesteziya, interperatsiya, sezgi, idrok, metafora.*

Annotation: *Synesthetic metaphor interpretation is considered a process of understanding how metaphors expressed throught senses shape deep layers of meaning in human perseption. This article highlights the role of sensation in the interpretation of synaesthetic metaphors.*

Keywords: *synesthesia, interpretation, sensation, perception, metaphor.*

Metaforaning interpretatsiyasi borasida jiddiy tadqiqot olib borgan B.Teliya shunday yozadi: “Metaforaning ko‘chma ma’nosi ierarxik tarzda tashkil topgan bilimlarni aks ettiradi. Bu qurilmaning quyi qatlamlarida predmetli olam modeli doirasidagi predmetlar haqida tajribaga asoslangan va ko‘chimni to‘g‘ridan-to‘g‘ri amalga oshiruvchi denotativ komponentlar joylashadi. Yuqori qatlamlarda insonning buyumlar olami va insonning boshqa odamlar bilan munosabatidan iborat ikki tomonlama aloqadorlik bilan belgilanadigan komponentlar joylashadi. Birinchi holatda ko‘chma ma’no emotiv komponentdan holidir (demak, bu kompanent ikkinchi planga o‘tadi), ikkinchi holatda emotsional munosabat ko‘chimni yuzaga keltiribgina qolmasdan, uning yuzaga kelish usuli ham hisoblanadi” [Телия, 1988:18].

Interpretatsiya o‘z-o‘zidan sodir bo‘lmasdan, qandaydir shartli elementlar – kodlarning bo‘lishini taqazo etadi. Bu esa ilmiy tekshirish yo‘li bilan isbotlanadi. Ingiliz tadqiqotchilari N.Edelmen va G.Mayntkasl belgi miya tomonidan unga

ma’qul keluvchi struktura, ya’ni tashqi tomondan keluvchi axborotning qabul qilinishida tajribada kuzatilmagan qurilmalarning mavjudligini talab qilishini isbotladilar. Ushbu strukturalar bizning tashqi olamdan uzatiluvchi belgilarni qabul qilishga tayyorligimizni shartlaydi va mavjud spektrdan muayyan ta’sirlarni saralaydi.

Sinestezik metaforalarda hosila ma’noning ma’lum sezgi bilan qabul qilingan referenti hosil qiluvchi ma’noning boshqa sezgi bilan qabul qilingan referentiga qiyoslangan, o‘xshatilgan bo‘ladi. Referentlar mutlaqo boshqa-boshqa sezgi bilan qabul qilinsa ham ularning xususiyati kishi ongida umumlashtiriladi va bir xil tasavvur etiladi. Aslida bu o‘xshatilgan hech qanday o‘xshashlikka ham hech qanday umumiylikka ham ega emas. Masalan, *shirin so‘z, achchiq gap* birikmalarida shirin, achchiq leksemalarining genetik ma’nosi *ta’m* sezgisi bilan idrok etilishi kerak bo‘lgan narsalarning belgisini ifoda etadi. Bu so‘zlarning hosila ma’ nosi ovozning shirin belgisini ifodalaydi. Bunda hosil qiluvchi va hosila ma’no referentlarining umuman sezgiga ta’sir etish xususiyatlari o‘zaro o‘xshatilgan va shunga ko‘ra hosila ma’no yuzaga keltirilgan, ya’ni sinesteziya sodir bo‘lgan.

Tilning tabiati uning ikki asosiy – kommunikatsion va ekspressiv funksiyasi bilan izohlanadi. Har ikkisi ham tafakkur qilish strukturasi orqali namoyon bo‘ladi. Albatta, unda getrogen mohiyat mujassam bo‘ladi, ya’ni subyekt – olamning vakili, predikat – odam ongida mavjud bo‘lgan konseptual tizimning vakili. Subyektning vazifasi – nutq predmetini identifikatsiyalash bo‘lsa, predikatning vazifasi – nutqning identifikatsiyalangan predmetidagi komunikatsiya uchun relevant hisoblangan belgilarga ishora qilishdir [Свирепо, 2002:7].

Shu narsa ma’lumki, biz olamni avvaldan mavjud, aniq, yaxlit strukturalarga mansub bo‘lgan bilimlar natijasida idrok qilamiz. Amaldagi idrok etish esa insonning miyasida allaqachon bor bo‘lgan, yanayam umumiy bilimlarning faollashuvidir, ayniqsa, bu jarayon sinestezik metaforalarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Shu bois sinestezik metaforalar o‘zining interpretatsion “noodatiyligi” bilan o‘ziga xos hisoblanadi.

Sinestezik metaforalarning interpretatsiyasi farqli sezgilarda idrok etilgan, aksar emotsional komponent orqali anglanadigan ko‘chimni o‘zida ifoda etadi va bunda *sezgilar* yetakchi omil hisoblanadi.

Tevarak-atrofimizda bo‘lgan va bizga ta’sir etib turadigan narsa va hodisalarning xilma-xil xossalari mavjud. Bu xossalar bevosita *ko‘rish, eshitish,*

*ta’m bilish, hid bilish, teri v*a boshqa o‘rganlar bilan ongimizda bevosita aks etadi. Sezgi a’zolarimizga ta’sir etadigan narsalardagi ayrim xossalrning miyamizda shu tariqa aks etishi *sezgi* deb ataladi. Demak, biz qizil, yashil ranglarni, shirin, achchiq ta’mlarni, og‘ir, yengilni, issiq, sovuq va shu kabilarni sezamiz. Sezgi organiga ta’sir etib, sezgini vujudga keltiradigan har bir narsa yoki hodisa qo‘zg‘ovchi deb ataladi, uning ta’siri esa qo‘zg‘alish deb yuritiladi [Зуфарова, 2010:59].

Sezish jarayoni quyidagi uch bosqichda amalga oshiriladi: a) narsa yoki hodisalar sezgi organlariga (retseptorga) ta’sir etib, tegishli nervning chekka (periferik) uchlarini qo‘zg‘aydi; b) hosil bo‘lgan qo‘zg‘alish o‘sha nervning o‘tkazuvchi yo‘li orqali bosh miya po‘stining tegishli markaziy hujayralari sistemasiga o‘tadi; C) bu yerda nerv qo‘zg‘alishi psixik hodisaga, ya’ni *sezgiga* aylanadi [Зуфарова, 2010:74].

Har bir sezgi odatda xush yoki noxush tuyg‘ular bilan bog‘langan bo‘ladi. Bu sezgining hissiy yoki emotsional toni deb ataladi. Masalan, *shirin* narsa kishiga huzur beradi, taxir, bemaza narsa ko‘ngilni behuzur qiladi. Ba’zi sezgilarda hissiy to‘n o‘ta kuchli bo‘ladi. Masalan, ortiqcha to‘yish, ochiqish, og‘riq sezgilari va hakazo. Sezish jarayonida hosil bo‘lgan xush yoki noxush tuyg‘ular ayni vaqtda organizmning qo‘zg‘ovchi ta’siriga javoban reaksiyasiga sabab bo‘ladi. Ba’zan bu reaksiyalarni anglash amri mahol. Bu reaksiyalar bolalik davrida yaqqol ko‘rinadi. Ana shu reaksiyalarga qarab bolalarning biror sezgini boshidan kechirayorganlarini bilishimiz mumkin.

Analizatorning yoqorida sanab o‘tilgan ana shu qismlardan birortasi zararlansa, sezgi hosil bo‘lolmaydi. Analizatorlar insonning ko‘p asrlardan buyon davom etib kelgan tarixida hayot uchun o‘ta muhim bo‘lgan qo‘zg‘aluvchilarni boshqa qo‘zg‘aluvchilardan ajratadi, ularni bir-biridan ayirib beradi. Ba’zan ajratish paytida ular hamkorlikda namoyon bo‘ladi, ya’ni sintezlanadi va sinesteziya sodir bo‘ladi. “Sinesteziya – ikki sezgining yaxlit bir sezgi bo‘lib qo‘shilishi demakdir” [Sezgilarning har xil turlariga xos bo‘lgan hisssiy - emotsional momentning umumiyligi tufayli sinesteziya ro‘y beradi. Qanday bo‘lmasin biror bir sezgi, masalan, *eshitish* sezgisi bo‘lganda umumiy hissiy vaziyat assotsiatsiya yo‘li bilan boshqa bir tasavvurni tug‘diradi. Masalan, *shirin so‘z.* Eshitish va ta’m bilish sezgisi o‘zaro sintezi.

Sinestezik metaforalarda sezgilarning *interpretatsion* hamkorligi quyidagicha voqelanadi:

Eshitish sezgisi – eshitish sezgilarining vazifasi tovushlarni sezishdan iborat. Eshitib sezishlar chog‘ida eshitish organida ro‘y beradigan spetsifik jarayonlar sababini izohlashda eng ko‘p qabul qilingan nazariya Gelmgolts ishlab chiqqan rezonans nazariyasidir. Bu nazariyaga ko‘ra havoning to‘lqinsimon harakatlari tashqi va o‘rta quloq orqali ichki quloqdagi endolimfaga o‘tadi. Bu yerda endolimfaga botib turuvchi qillar orqali asosiy membrana tolalari tebranadi va ulardan eshitish nervi ham harakatga keladi [Зуфарова, 2010:56].

Hosil bo‘lgan sezgi tilda ma’lum bir modelga o‘tadi va eshitish bilan bog‘liq leksemalarda akslanadi. Ba’zan bir vaqtning o‘zida *eshitish sezgisi* bilan *ko‘rish, ta’m bilish, hid bilish, teri sezgilari* birgalikda ishlaydi. Natijada sezgilar hamkorligi – sinesteziya yuzaga keladi. Bu, ayniqsa, sinestezik metaforalarda yaqqol ko‘rinadi.

Milliy lisonimizda *eshitish* sezgisi orqali idrok qilinishi kerak bo‘lgan tovushlar bir nechta tuyg‘ular bilan hamkorlikda o‘ziga xos sinestezik xaritani shakllantirgan:

1.Baland ovoz- past ovoz
2.Qattiq ovoz-yumshoq ovoz
3.Mayin ovoz – qo‘pol ovoz
4.O‘tkir ovoz – hokisor ovoz
5.Quvnoq ovoz- g‘amgin ovoz
6.Qo‘pol ovoz – silliq ovoz
7.Yengil ovoz- og‘ir ovoz
8.Shirin ovoz – achchiq so‘z

Bunday farqli sezgilar hamkorligida hosil bo‘lgan birikmalar nafaqat tilning estetik boyligini ifodalaydi, balki inson tafakkurining qanday ishlashiga doir muhim kognitiv xaritalarni ham ochib beradi. Bunday metaforalar sezgi tajribasining abstraktsiyalashuvi, ya’ni tajribadan tilda ma’lum modelga o‘tish jarayonini ko‘rsatadi.

Ko‘rish sezgisi – rang va yorug‘likni sezish ko‘rish sezgilariga kiradi. Ko‘rish sezgilarining organi ko‘z hisoblanadi. Bu organ ko‘z soqqasi bilan undan chiqadigan ko‘ruv nervidan iborat. Ko‘rish sezgisini hosil qiladigan fizik sabab – yorug‘lik, ya’ni elektromagnit to‘lqinlaridir [Зуфарова, 2010;75].

Inson omili o‘ziga xos shunday murakkab tuzilgan bir strukturaki, ilmiy fan ba’zan uni ilmiy xulosalashga yechim topa olmaydi. Ko‘rish (visual) sezgisi orqali idrok qilinuvchi tushunchalar ba’zan boshqa sezgilar bilan idroklanadi va nomlanadi yoki aksincha. Masalan,

1.Eshitish ko‘rish

Yorqin ovoz – bu birikmada eshitish sezgisi orqali idrok qilinuvchi ovoz ko‘rish sezgisi bilan ifodalangan.

2.Abstrakt ko‘rish

Qora ga’m, oppoq niyat, yorqin xotira – hissiy holatlarni aniq tasavvur qilishimiz uchun ko‘rish sezgisi orqali idroklanuvchi rang yoki yorug‘lik bilan ifodalanmoqda.

Hid bilish sezgisi – hid bilish retseptorlari burun bo‘shlig‘i shilliq pardasida joylashgan bo‘lib, ularning soni o‘rtacha 30-40 ming atrofida. Hid bilish retseptorlari tashqi muhit havosi tarkibidagi va ovqatdagi kimyoviy moddalar ta’sirida qo‘zg‘aladi. Ularning qo‘zg‘alishi hid bilish nerv tolasi orqali bosh miya yarim sharlari po‘stlog‘ining ichki yuzasidagi hid bilish markaziga boradi. Bu markazda nerv hujayralarida ta’sir analiz va sintez qilinadi [Зуфарова,2010:79].

Ba’zan bir vaqtning o‘zida bu jarayonda *ko‘rish, eshitish, ta’m, teri sezgilari* qabul qilgan tuyg‘ular o‘zaro qorishib g‘ayrioddiy metaforalarning tug‘ilishiga sabab bo‘ladi. Masalan,

Qorlarida qorishdi oqshom –

Elay ketdi ***nurli changini*** (R. Parfi).

Ta’m bilish sezgisi –ta’m bilish retseptorlari til so‘rg‘ichlarida, yumshoq tanglay va tomoq shilliq pardasida hamda tomoqdagi bodomsimon bezlarning ustki qavatida joylashgan. Retseptorlar ovqat tarkibidagi kimyoviy moddalar ta’sirida qo‘zg‘aladi. Ularning qo‘zg‘alishi til-halqum nerv tolalariga o‘tib, ular orqali uzunchoq miyaga boradi. Undan oraliq miyadagi ko‘rish do‘mbog‘i, so‘ngra bosh miya yarimsharlar po‘stlog‘i chakka qismining yuqori sohasidagi ta’m bilish markaziga boradi. Bu markazda ta’sir analiz va sintez qilinadi [Зуфарова, 2010:82].

Bu jarayonda, ba’zan ko‘rish, eshitish, hid bilish, teri va boshqa sezgilar hamkorlikda ishlab respondentda noodatiy birikmalarning tug‘ilishiga sabab bo‘ladi. Masalan, *achchiq haqiqat, shirin bola, shirin xotira.*

Teri sezgisi – bizga ma’lumki, teri qavatida og‘riqni, haroratni, siypalash va bosimni sezuvchi retseptorlar joylashgan. Teridagi sezuvchi retseptorlarning qo‘zg‘alishi sezuvchi nerv tolalari orqali orqa miyadagi quyi nerv markazlariga, ulardan oraliq miyadagi po‘stloq osti markaziga so‘ng bosh miya yarimsharlar po‘stlog‘ining pushtasida joylashgan sezish markazlariga boradi. Markazdagi nerv hujayralarida yuqoridagi ta’sir analiz va sintez qilinadi [Зуфарова, 2010:85].

Bu jarayonda ba’zan boshqa sezgilar ham hamkorlik qiladi. Teri orqali idroklangan metaforalar ham nutqimizda ko‘plab uchraydi: *sovuq muamala, iliq munosabat, og‘ir gap, chuqur o‘ylash.*

Demak, shuni anglash mumkinki, sezgilar moddiy borliqning, voqelikning haqqoniy tasvirini in’ikos qiladi, ya’ni moddiy olam qanday ko‘rinishga ega bo‘lsa, ular xuddi shundayligicha o‘zgarishsiz tilda aks etadi. Sinestezik metaforalarda esa aksincha, boshqa-boshqa sezgi orqali idrok qilinishi kerak bo‘lgan, umuman o‘xshamagan voqeliklar bir xil nom bilan aytiladi va bu o‘rinda, xalqning dunyoni ko‘rishdagi, uni nomlashdagi ijodkorligi namoyon bo‘ladi.

ADABIYOTLAR

1.Зуфарова М.Е. Умумий психология. –Тошкент. 2010.

2.Телия Н. Метафора в языке и тексте. –М.: Наука, 1988. – 249 с.

3.Свирепо О. Метафора как код культуры: Автореферат дисс. кан. философских наук. – М., 2002. – 67 с.

4.Zawisławska M. Metaphor and Senses. The Synamet Corpus: A Polish Resource for Synesthetic Metaphors. – Amsterdam: Peter Lang, 2019. – 192 p.

5.Simner J., Mulvenna C. Synesteziya: The Prevalence of Typical Cross-modal Experiences. – Amsterdam: Perseption, 2006. – 323 p.

MUNDARIJA

KIRISH SO‘ZI		
Sirojiddinov Sh.S.	O‘zbek tilining xalqaro nufuzini oshirish zarurati	**6**
I. O‘ZBEK TILINING JAHON TILLARI TIZIMIDAGI O‘RNI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI		
Xolmanova Z.	O‘zbek tilining jahon tillari tizimidagi mavqeyini belgilashda lingvodidaktikaning o‘rni	**9**
Abdushukurov B.	Alisher Navoiy asarlaridagi qadimgi turkiy fe’llar semantikasi	**16**
Xudoyberdiyev J.	Mahmud Koshg‘ariy – singarmonizmning birinchi nazariyotchisi va ovrupolik olimlarning singarmonizm haqidagi xato qarashlari	**30**
Abdurahmanova M.	Alisher Navoiy merosi psixolingvistik talqinda	**45**
Xolmurodova M.	“Nasoyim ul-muhabbat” asaridagi tabobatga doir ayrim arabcha so‘zlar	**51**
O‘razova I.	Ot frazemalarning grammatik funksiyasi (Alisher Navoiy “Xamsa”sidagi frazemalar misolida)	**56**
Maxkamova D.	O‘zbek tili axborot-kommunikatsiya texnologiyalari	**60**

	terminologiyasi taraqqiyoti va tadqiqi	
Oripova M.	Sinestezik metaforalarda sezgilar interperatsiyasi	**66**
Muratova N.	Tilak va tabrik nutqiy aktlarida kommunikativ taktikaning tanlanish xususiyatlari	**72**
Abdullayeva G.	Folklor diskursida o‘xshatishlarning semantik-struktur va kognitiv tahlili	**78**
Xayrullayeva R.	Kichraytirish-erkalash shakllarining pragmatik ifodalanishi	**86**
Jumaniyozova Ch.	Sifat so‘z turkumida obyektiv va subyektiv belgilarning ifodalanishi	**90**
Abduvaliyeva K.	“Shajarayi turk” asaridagi ba’zi urug‘ nomlarining etnotoponim sifatidagi tahlili	**95**
Mullaboyeva Sh.	O‘zbek tilida o‘xshatishlar asosida estetik bahoning ifodalanishi	**107**
Mamadoliyeva M.	Graduallik kategoriyasining lingvistik tabiati va uning turdosh hodisalar bilan munosabati (Xayriddin Sultonov va Iqbol Mirzo asarlari misolida)	**115**
Mamarasulova M.	O‘zbek tili fonosemantik tahlilining fonologik asoslari	**130**
Siddiqova N.	O‘zbek xalq maqollaridagi eskirgan leksika: tarkibi,	**132**

	variantlanishi va lingvopoetik vazifalari	
Yusupova A.	Konseptlarning metaforik ifodalanishi va tahlil shakllari	**144**
O‘ralova N.	O‘zbek tilshunosligida parsellyatsiya hodisasi, uning sintaktik tavsifi va ega-kesim munosabatidagi o‘rni	**150**
Maxmudova M.	Kelishik kategoriyasining o‘rganilish tarixiga doir ayrim mulohazalar	**158**
Nurmatova S.	O‘zbek tilida rang ifodalovchi birliklarning lingvokognitiv strukturasi va konseptualizatsiya masalalari	**168**
Keldiyorova Z.	O‘zbek tilidagi shikoyat matnlarida nutqiy aktlarning ifodalanishi	**174**
Aliqulova Z.	Toponimlarning axborotni saqlash va uzatish xususiyatlari	**178**
Jurayeva Sh.	Hurmat kategoriyasining lisoniy birliklar bilan ifodalanishi	**183**
Karimova U.	Kultegin bitiktoshidagi xarakter-xususiyat bildiruvchi sifatlar tahlili	**188**
II. O‘ZBEK TILINI XALQARO MAYDONDA TARG‘IB QILISH STRATEGIYALARI		
Shamsiyeva M.	Peyzaj matnlari orqali turizmni rivojlantirish istiqbollari	**194**

Jo‘rayeva M.	Matnni tushunishda asar sarlavhasining ahamiyati	**201**
III. GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY TIL VA MADANIYATNI SAQLASH MASALALARI		
Ashirboyev S.	Adstrat sharoitidagi turkiy shevalarning o‘zaro ta’siri masalasi	**205**
Farhad Rahimi	Yakşı/ ĥoş, yap/ lap, ķop/ köp/ ĥob, appaķ/ pāk kelimeleri üzerine On the words yakşı/ ĥoş, yap/ lap, ķop/ köp/ ĥob, appaķ/ pāk	**210**
Xakimova M.	O‘zbek tilidagi metaforik konseptuallashtirishning milliy xususiyatlari	**232**
Abbozov O.	So‘x toponimlarining lingvomadaniy xususiyatlari	**238**
Komilova G.	O‘zbek tilida qadriyatlar tipologiyasining lingvistik verbalizatsiyasi	**245**
Xomidova M.	Zamonaviy o‘zbek badiiy matnlarida ertak elementlarining intertekstual xususiyatlari	**253**
Həsənzadə Səmra	Qrammatik metaforun türk dillərində reallaşması (özbək dilinin materiallari əsasinda)	**261**
Davronova Z.	Antroponimik freymlarda registrdan og‘ish fenomini (Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani misolida)	**272**

Tursinbayeva Sh.	Badiiy matnda onomastik birliklarning lingvomadaniy imkoniyatlari	**276**
Bekmuradova I.	O‘zbek tilidagi ijobiy fe’l-atvor leksemalarining semantik tasnifi	**283**
Imomova I.	Fitratning dramatik asarlarida maqollarning qo‘llanilishi va funksional-semantik xususiyatlari	**291**
Turgunboeva D.	Globallashuv sharoitida o‘zbek va ingliz lingvomadaniyatida miqdoriy me’yor	**297**
Amrullayeva M.	O‘zbek tilida inson xarakterini ifodalovchi frazemalarning semantik mikromaydonlari	**305**
Abdug‘afurova A.	Lingvomadaniy kodlarning poetik faollashuvi: Faxriyor va Ulug‘bek Hamdam she’riyati qiyosida	**312**
Muzaffarova Z.	Badiiy matnda qo‘llangan metaftonimik birliklarning kognitiv xususiyatlari	**322**
Jumayeva M.	Son komponentli lug‘aviy birliklarning lingvokulturologik tahlili	**327**
Xolmo‘minova H.	Frazemalarning lingvomadaniy tahlili	**333**
IV. O‘ZBEK TILINI O‘QITISHNING ZAMONAVIY METODLARI VA XORIJIY TAJRIBA		

Xusanova N.	Raqamli ta’lim muhitida o‘qish savodxonligi transformatsiyasi vositasida boshlang‘ich o‘quvchilarning kreativligini shakllantirish	**337**
Mamirova X.	Bolalarda ko‘p ma’noli so‘zlarni o‘zlashtirishning psixolingvistik mexanizmlari va til ta’limiga ta’siri	**344**
Arolova N.	Maktabgacha yoshdagi o‘zbek bolalari nutqida sintaktik tejamkorlik	**351**
Mirnosirova D.	Nutqiy ijod haqidagi nazariy qarashlar talqini	**356**
Nurboboyeva R.	Erta yoshdagi bolalar ta’limida adabiyotning tutgan o‘rni	**363**
Keldiboyeva M.	O‘zbek tili omonimlarini o‘zlashtirishda kontekst va assotsiatsiyaning psixolingvistik roli	**369**
V. TARJIMA VA LINGVOMADANIY ALOQALAR: XALQARO HAMKORLIKNING MUHIM OMILI SIFATIDA		
Mustafa Said Arslan	Türkiye türkçesi ve özbek türkçesi arasindaki yakinliğin öğretimdeki yansimalari: özbek türkçesi öğretiminde karşilaşilan sorunlar ve öneriler	**378**
Kalanova D.	O‘.Hoshimov “Dunyoning ishlari” asarining koreyscha tarjimasida milliy-madaniy realiyalarning berilishi	**389**

Muhammadiyeva D.	Ko‘p tilli parallel korpusning tarjima birliklarini qiyosiy o‘rganishdagi imkoniyatlari	**400**
Abbasova Ş.	Özbek Yazı Dili ve Azerbaycan Türkçesi'nin Ağızlarında Akrabalık Terimleri	**411**
Qarshiyev K.	Badiiy tarjimaning adabiy-estetik tafakkur evolyutsiyasiga ta’siri (Jamol Kamolning tarjimonlik faoliyati misolida)	**418**
Rahimova Z.	Parallel korpuslarning tarjimashunoslik va qiyosiy tilshunoslikdagi ilmiy ahamiyati	**428**
Bozorova S.	Rus tilidagi ayrim gippologik birliklar tadqiqiga doir	**433**
Axmedova N.	O‘zbek va ingliz tillarida ruhiy holat birliklarining semantik farqlari va kontekstual tarjimasi	**442**
Davlatova R.	Sun’iy intellekt asrida inson nutqi, tilni idrok etish va psixolingvistik jarayonlar	**448**
Turdiyeva R.	Ingliz, qoraqalpoq va o‘zbek tillaridagi maqollarda zoonimlarning lingvokognitiv tahlili (“bo‘ri” misolida)	**462**
Ataniyazova S.	O‘zbek va ingliz tillarida mayl, zamon va modallikning muloqot xulqidagi funksional-uslubiy imkoniyatlari	**466**
Sayfiyeva K.	O‘zbek va ingliz fitonim komponentli maqollarida inson	**472**

	konseptining kognitiv metaforik modellari	
Tillayeva O.	O‘zbek va turk maqollarida erkak konseptining semantik maydoni	**485**
Musurmankova Sh., **Abdullayeva D.**	“Ikki eshik orasi” romanidagi murojaat birliklarining lingvomadaniy xususiyatlari va tarjima muammolari	**495**
Abdullayeva M.	Ingliz va o‘zbek maqollarida nutqiy antonimiyaning lingvokognitiv xususiyatlari	**502**
VI. AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA RAQAMLI MUHITDA O‘ZBEK TILINING RIVOJI		
Abjalova M.	O‘zbek tili multikorpusida aksentologik korpus va uning ahamiyati	**513**
Elova D.	O‘zbek normativ-huquqiy matnlarini lingvo-mantiqiy annotatsiyalash mezonlari	**524**
Kasimova Z.	O‘zbek tili iboralar korpusini yaratishning lingvistik va kompyuter asoslari	**534**
Nurullayeva O.	Barqaror birikmalar resurslari va parallel korpus uchun baza tuzish mezonlari	**542**
Musulmonova K.	Lingvistik ekspertologiyada matn identifikatsiyasi bo’yicha ekspert xulosalarini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari	**550**

Umarova Sh.	Kollokatsiyalarni korpus asosida aniqlashning nazariy va metodologik asoslari	**556**
Akramdjanova M.	Parallel korpusning madaniyatlararo kommunikatsiyadagi o‘rni	**564**
Buronova R.	Raqamli muhitda o‘zbek tilidagi neologizmlarning shakllanishi	**570**
Shodmonaliyeva Y.	Sentiment tahlilda tasdiq-inkor emojlarining diskursiv va pragmatik funksiyalari	**576**
Rayimjonova M.	Rauf Parfi she’riyatining leksik-statistik xususiyatlari	**591**
VII. XALQARO TA’LIM DASTURLARI VA O‘ZBEK TILI: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLAR		
Mirzəli Məleykə	Azərbaycanda özbək dilinin tədrisi: təcrübə və perspektivlər (bakı slavyan universitetinin timsalında)	**595**
Iskandarova G.	O‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘rganishda so‘z ma’nolarini o‘zlashtirish	**603**
VIII. O‘ZBEK TILI VA DIPLOMATIYA: XALQARO MUNOSABATLARDA TILNING O‘RNI		
Темирова Б., **Темирова М.**	Кыргыз, өзбек тилдери жана алардын адабий-маданий байланыштардагы ролу	**610**

Nazarov Q.	O‘zbek diplomatik diskursida metaforalarning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari	**620**
IX. ILMIY TADQIQOTLAR VA LINGVISTIKADA XALQARO HAMKORLIK MASALALARI		
Berdak Yusuf	O‘zbek tilining shakllanish jarayoni va eski o‘zbek tili terminlari	**626**
Qurbonova M.	Xarizmatik nutq haqidagi nazariy qarashlar talqini	**632**
Umurzoqova M.	Erkin A’zam asarlarida lisoniy shaxs tiplari	**640**
Mirzaali Malika	O‘zbek tılının mavsumıy marosımlar leksıkasıda turkıy areal mavqeyı	**646**
Məmmədova A.	Xarəzm Türkcəsində Və Müasir Özbək Dilində Qohumluq Terminlərində Cins Kateqoriyasinin İfadəsi	**661**
Tuxtasinova M.	L.Z.Budagov lug‘atidagi umumturkiy leksik fond: “tur.” pometali leksemalarning tarixiy-qiyosiy tahlili	**670**
Abdullayeva S.	So‘z yasalishını qıyosıy-tıpologık tadqıq etısh metodologıyası va tahlıl mezonları	**681**
Xasanova G.	Kinesikaning lingvistik tadqiqi: shakllanish tarixi va kommunikativ funksiyalari	**688**

Rajabov N.	O‘zbek tilida ng fonemasining talaffuzi, imlosi va tarixiy taraqqiyoti	**695**
Mirzayeva G.	O‘zbek tilida tovush o‘zgarishlarining neyrolingvistik asoslari	**699**
Arislanova M.	She’riy matnning konseptual tizimi va lingvokognitiv xususiyatlari (Erkin Vohidov ijodi misolida)	**706**
Muhammadiyeva M.	“Shum Bola” qissasidagi ba’zi polisemantik leksemalar tahlili	**717**
Abdullayev G‘.	Fitrat she’riyatidagi turkiy so‘zlarning emotsional-ekspressiv xususiyatlari	**722**
Tursunova S.	Ironiyada implikatura fenomeni va yashirin ma’no mexanizmlari	**726**
Turobova N.	Badiiy diskursda morfologik vositalarning pragmatik xususiyatlari	**737**
Utegenova O‘.	O‘zbek tilida tasviriy ifodalarning badiiy matnda qo‘llanilishi	**744**
Komilova G.	Tarixiy-badiiy matnlar korpuslarini yaratish zarurati va ularni semantik modellashtirish masalalari	**749**
Haydaraliyeva Sh., Mo‘minova M.	O‘zbek tili leksikasining taraqqiyot tamoyillari va semema tushunchasi	**759**

Axmedova M.	Diskurs tushunchasining lingvistik talqini: nazariy yondashuv va ilmiy qarashlar	**768**
Komilova Sh.	Lingvokultrologiyada evfemizm va milliy mentalitet: ayollar nutqi misolida nazariy talqinlar	**774**
Suyunova D.	“Boburnoma” dagi leksik qatlamlarning “Boburiynoma”da badiiy qayta faollashuvi: leksik-semantik va funksional-uslubiy tahlil	**780**
Maqsudaliyeva Y.	Lingvistik ekspertiza va lingvokriminalistik tahlil: nazariya va amaliyot	**786**
Abdurasulova D.	O‘zbek qizlari nutqidagi neonim va slenglarning pragmalingvistik tadqiqi	**792**
Majidova M.	Tibbiy soha rahbarlari kinesik nutqining lingvosomatik tadqiqi	**797**
Abdullayeva I.	Gender qadriyatlarning aksiolingvistik tahlili	**802**
X. O‘ZBEK TILINING OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI VA MEDIA MAKONIDAGI O‘RNI		
Saydaliyeva M.	Kinodiskurs multimediali muloqot tizimi sifatida	**809**
Otaxonova S.	Mediamatnlarda antroponimlarning pragmatik imkoniyatlari	**813**